

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NOL MORFEMA MASALASI: NAZARIY QARASHLAR VA MUNOZARALAR

Sayfullayeva Bahora Sherali qizi

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida nol morfema (nol shakl) tushunchasining talqini, uning grammatik xususiyatlari va soha olimlari o'rtasidagi ilmiy munozaralar tahlil qilinadi. Xususan, nol morfemani til tizimidagi o'rni, o'zbek tilshunoslarining ushbu hodisaga nisbatan qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: nol morfema, nol shakl, markerli morf, markersiz morf, grammatik kategoriya, bosh kelishik, morfologik paradigma.

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the “zero morpheme” (zero form) concept in Uzbek linguistics. It examines the terminological distinctions between marked and unmarked morphs, as well as the debate regarding the existence of phonetically unexpressed morphemes. The research explores how grammatical categories like case, number, and person are manifested in the absence of explicit affixes.

Keywords: zero morpheme, zero form, marked morph, unmarked morph, grammatical category, nominative case, morphological paradigm, Uzbek linguistics.

Kirish (introduction). O'zbek tilshunosligida morfema shakl va mazmun birligi sifatida e'tirof etilsa-da, til tizimidagi ba'zi grammatik ma'nolarning moddiy qiyofasiz voqelanishi uzoq yillardan buyon munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Tadqiqotning maqsadi – o'zbek tili morfologiyasidagi “nol morfema” tushunchasini turli ilmiy maktablar va olimlarning (A.Berdialiyev, I.Ermatov, R.Sayfullayeva, A.Hojiyev, Y.Tojiyev, A.Uralov va b.) qarashlari asosida tahlil qilish, ushbu hodisaning til tizimidagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Metodologiya (methods). Maqolada qiyosiy-tahliliy va deskriptiv metodlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek tili darsliklari, izohli lug'atlar va fundamental ilmiy asarlar olindi. Asosiy e'tibor morfemaning shakliy va mazmuniy muvofiqligi hamda til qonuniyatlariga qaratildi.

Natijalar (results). To'plangan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilshunosligida nol morfema tushunchasiga ikki xil yondashuv mavjud:

A) nol morfemani e'tirof etuvchi yondashuv:

“Language system is such kind of system where some features have generality and same time have difference. Despite of it these differences are interconnected each other. Such kind of features has morphemics that studies language morphemes”[11,1286]. A.Berdialiyev va I.Ermatov darsliklarida morfemalar markerli (fonetik qiyofali) va markersiz (fonetik qiyofasiz) turlarga ajratiladi. Ularning fikricha, nol morfema muayyan grammatik kategoriya doirasidagi ma'nolardan birining shaklsiz ifodalanishidir [1.14]. Darslikda bosh kelishik maxsus ko'rsatkichga ega emasligi, uning nol affiks ekanligi aytilgan (masalan, kitob-ø). Otlardagi birlik ma'nosi nol affiks orqali ifodalanishi haqida ham an'anaviy fikrlar ilgari suriladi (kitob-ø – birlik, kitob-lar – ko'plik). Shaxs-son kategoriyasida esa fe'llarning uchinchi shaxs birlik shakli (masalan, o'qidi-ø, yozdi-ø) nol morfema

bilan ifodalanishi haqida ma'lumot olishimiz mumkin. "Mutanosiblik yoki nomutanosiblik, avvalo, inson ongida shakllanadi. Shu jihati bilan mantiq fani bilan chambarchas bog'lanadi. Ongda shakllangan tushuncha ma'lum bir shakl bilan ifodalanadi. Lisoniy belgi va uning ma'nosi lingvistik birlikning nomutanosibligiga bog'liq. Shu sababli ham til belgilari ongda turli shakllar hamda ma'nolarda gavdalanadi. Bu esa turli nomutanosibliklarni shakllantiradi"[15,17]. Nol shaklda ham ma'no va shakl nomutanosibligi kuzatiladi, birlik ma'nosi mavjud, 3-shaxs ish-harakatni bajargani anglashilyapti, ammo grammatik ifodasi, ko'rsatkichi yo'q. Shakl va ma'no o'rtasidagi munosabatning buzilishiga misol bo'la oladi, albatta.

Sh. Abdurahmonov va R. Sayfullayeva ham yuqoridagi fikrlarni qo'llab-quvvatlab, o'z asarlarida nol shaklni shu asosda yoritishadi. Ularning yondashuvlarini anglash uchun bosh kelishikning nol ko'rsatkichli morfema ekanligidan foydalanishimiz mumkin. Sh. Abdurahmonov bosh kelishik formasi maxsus morfologik shakl bilan ifodalanmasligini, shu bois ham uni nol morfema deb hisoblash mumkinligini yozgan bo'lsalar, R. Sayfullayeva esa bosh kelishik nol shaklga ega kelishik ekanligini, uning mohiyati kelishiklar paradigmasining boshqa a'zolariga qarama-qarshi qo'yilishi (oppozitsiya) natijasida belgilanishini ko'rsatganlar. Y. Tojiyev va ularning izdoshlari ham shu yondashuvga tayanganlar. Xususan, A.Uralov o'zining "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida so'zlar asos sifatida turli xil holatlarda ham morfemalar qo'shilishi yoki qo'shilmaligidan qat'iy nazar, nol shaklda ham ma'no anglataveradi, deganlar. Kesim vazifasida kelgan sifat 3-shaxs birlik yoki ko'plikda bo'lganda hamma vaqt ko'rsatkichsiz keladi, ularda kesimlik shakli shakllanmaydi va nol ko'rsatkichli deb qaraladi. [13.30]

B) Nol morfemani inkor etuvchi yondashuv:

Professor A.Hojiyev nol morfema tushunchasini o'zbek tilshunosligiga o'zga tilshunoslikka oid adabiyotlardan, xususan, rus tilshunosligidan "ko'r-ko'rona" ko'chirib olingan, deb hisoblaydi. O'zbek tilshunosligida bir guruh tilshunos olimlar turkiy tillarda nol morfema grammatik shakllar sirasida ustuvor mavqega ega, nutqda voqelangan biror mustaqil leksema qo'shimchasiz bo'lishi mumkin emas. Moddiy qiyofali morfemasiz leksema nol qo'shimchalidir. Masalan, nutqda Kitob o'qi, Uyga bor, U a'lochi gaplaridagi "o'qi", "bor", "a'lochi" so'zlari nol nutqiy birliklardir deyishadi. Azim Hojiyev esa bu fikrning xatolarini sanab o'tadi: birinchidan, turkiy tillarda nol morfemaning ustuvor mavqega egaligi u yoqda tursin, shunday morfemaning borligi haligacha isbotlanmaganligi; ikkinchidan, nutqda voqelangan birlik leksema emas so'zshakl bo'lishi; uchinchidan, qo'shimcha o'z nomi bilan nimagadir qo'shib yozilishi, qo'shib kelishi kerakligini ta'kidlaydi. Agar so'z tarkibida qo'shib yoziladigan narsa yo'q bo'lsa, qo'shimcha haqida gapirish, "nol qo'shimchali leksema" deyish o'rinsiz, degan fikrlarni ilgari surganlar. So'z yasovchi morfemalarda nol shakl yo'q, aslida shakl yasalishida ham bunday hodisa, ya'ni "nol shakl" yo'q va bu qonuniy hol morfema shakl va mazmun jihatiga ega bo'lgan til birligi, bunday birlikning shaklsiz (fonetik qiyofasiz) bo'lishi mumkin emas – shaklsiz morfema yo'q [14.52]. Tilshunos olim bosh kelishik, otlardagi birlik, bo'lishlilik va shularning qatorida nol shakl deb ataydigan grammatik kategoriya a'zolarini aslida yo'q deyдилar. Masalan, bosh kelishik kim?

nima? so'roqlariga javob bo'ladi deyiladi, aslida barcha ot turkumidagi so'zlar shu so'roqni oladi-ku, deya mavjud fikrlarga qarshi chiqadilar. A.Hojiyev tilshunoslarimiz aslida u yoki bu so'z turkumiga mansub so'z shu turkumdagi grammatik kategoriyalardan, kategoriyalarning shakllari paradigmasidan chetda qolishi, chetda bo'lishi mumkin emas, degan aqida asosida ish ko'rishayotgani sabab nol shakl bor deya da'vo qilishayotganliklarini aytganlar. Otlardagi birlik ma'nosini ifodalovchi maxsus grammatik aslida yo'q ekanligini, tilimizdagi har bir hodisa oppozitsiyalanishi shart deb qaralishi noto'g'ri ekanligini aytib, Sh. Rahmatullayevning quyidagi fikrini gaplarining tasdig'i deb keltiradilar: "Haqiqatda, o'zbek tilida yakka ifodalovchi forma yo'q, turdosh ot leksema ma'lum kontekstdagina yakka predmetdni bildiradi, o'zicha esa son jihatdan noaniq bo'ladi. Asli bola kabi formaga birinchi galda "umuman" ma'nosi xos, "bitta" ma'nosi esa -lar affiksining "bir necha" ma'nosiga zidlanishda yuzaga keladi. Demak, bola kabi so'z asli grammatik son jihatdan neytral. Ana shunday neytrallik sababli bu formadagi ot oldidan ortiqlikni ifodalaydigan sifatlovchi keltiraverish mumkin: bitta bola, bir necha bola, ancha bola kabi".

Muhokama (discussion). Munozaraning markazida Sh. Rahmatullayev va A. Hojiyev tomonidan ilgari surilgan "neytrallik" nazariyasi turadi. Unga ko'ra, masalan, "bola" so'zi o'zicha grammatik son jihatidan neytraldir. Undagi "birlik" ma'nosi maxsus nol ko'rsatkich bilan emas, balki "-lar" ko'plik affiksiga zidlash yoki kontekst orqali aniqlanadi.

Yormat Tojiyev esa nol ko'rsatkichni kategoriyadan tashqarida emas, balki paradigma ichidagi birlik deb hisoblaydi. Azim Hojiyevning yakuniy xulosasiga ko'ra, bu birliklar kategoriyaga betaraf emas, balki paradigmaga mansub, biroq ularni "nol shakl" deb atash va maxsus morfema sifatida ajratish tilning tabiatiga ziddir.

Nol morfema tarafdorlari buni tilning tizimlilikini (simmetriyasini) saqlash uchun zarur deb bilsalar, qarshi taraf tilning fonetik realligiga tayanishni afzal ko'radilar.

Xulosa (conclusion). Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar aniqlandi. Nol morfema o'zbek tilshunosligida morfologik paradigmani to'ldiruvchi funksional birlik sifatida qaraladi. An'anaviy darsliklarda nol morfema bosh kelishik, shaxs-son va son kategoriyalarida asosiy o'rin tutadi. A.Hojiyev tomonidan bildirilgan tanqidiy fikrlar tilshunoslikda morfemaga berilgan fundamental ta'rifga (shakl va mazmun birligi) tayanadi va bu sohadagi mavhumliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Nol shakl masalasi tilning abstrakt darajasi (til) va real voqelanish darajasi (nutq) orasidagi muvozanatni tushunishda muhim nazariy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijasida o'zbek tilshunosligida "nol shakl"ni e'tirof etuvchilar yondashuviga qo'shildik. Bizning qarashlarimizda ham nol shakl degan tushuncha mavjud. A.Hojiyev yoqlab chiqqan "neytrallik" masalasi ba'zi o'rinlarda mutlaqo tormikan deya o'ylantirdi. Tilshunos aytgandek, yakka hodisalarni oppozitsiyaga kirishi shart deya qarash, jahon tilshunosligida mavjud bo'lgan tushuncha-terminni olib kirib, tilimizga zo'rma-zo'raki moslashdek ko'rindi. Ammo A.Hojiyev ta'kidlaganidek, bosh kelishik, birlik ma'nosi, bo'lishlilik, fe'lning 3-shaxs ko'rsatkichlarining yo'qligi, aslida bunday tushunchalarning o'zi yo'q narsa ekanligi, ularni bor deb

sanab tilimizni murakkablashtiramiz, bular oppozitsiyaga kirishmaydigan yakka tartibdagi neytrallardir. Lekin falsafiy jihatdan qarasak ham har holat- narsaning zidi mavjud, oppozitsiyaga kirishadi va mohiyati oydinlashadi. Mayli bosh kelishikni asli yo'q tushuncha edi, shu sabab nol shakl ham ha deylik, ammo fe'ldagi 3-shaxs ko'rsatkichi-chi?! Uning bajaruvchisi bor reallikda, bosh kelishik kabi ortiqcha murakkablashtirish mahsuli emas. Bizningcha,tilimizda nol shaklning bo'lishi ma'qul va eng to'g'ri yo'l. Shunda til sistemamizdagi muvozanat buzilmaydi, chalkashliklar yuzaga kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Tamaddun, 2022.
2. Abdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent.
4. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
5. Tojiyev Y. O'zbek tili morfemikasi. – Toshkent, 1992.
6. Begnarovich, U. A. (2025). TILSHUNOSLIGIMIZDA AGGLYUTINATSIYA VA FUZIYA JARAYONLARIDAGI NOMUTANOSIBLIKNING YUZAGA CHIQISHI. SHOKH LIBRARY, 1(11).
7. MAMATKULOVA, A. U. N. (2025). SO 'ZNING FUZIYON O 'ZGARISHLARI VA AGGLYUTINATSION HODISALAR. «ACTA NUUZ», 1(1.8. 1), 234-236.
8. Azamat, U. (2024). ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 3(1), 163-168.
9. URALOV, A. (2024). LINGVISTIKADA NOMUTANOSIBLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI. News of the NUUZ, 1(1.9), 320-322.
10. URALOV, A. MORFOLOGIK SHAKLLAR TIZIMIDA DUALIZM, KONVERSIYA VA TRANSPOZITSIYA TUFAYLI YUZAGA KELAYOTGAN NOMUVOFIQLIKLAR. FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA, 11.
11. Begnarovich, U. A. Specification of Appearances of Comprehensive Forms in Uzbek Language Morphemes. JournalNX, 1283-1287.
12. Uralov, A. B. (2018). COMPREHENSIVE AND EXTENDED FORMS OF SUFFIXES IN UZBEK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (12), 127-131.
13. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2021.
14. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalişining nazariy masalalari.
15. Uralov A. O'zbek tili morfologik shakllari tizimida nomutanosiblik. – Samarqand, 2024.